

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2011-yil
28-mart
N:13
(66814)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



Andijon viloyatiga bag'ishlangan
MAXSUS SON



MUKOFOT MUBORAK!

Andijonlik iqtidorli, intiluvchan, ijodkor qizlarimiz orasida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari ham yildan-yilga ko'payib boryapti. Yaqinda ularning soni yana bir nafarga ortdi.

Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi **Yulduzxon O'rmonova** nufuzli mukofotning bu yilgi sohibalari qatoridan munosib o'rin egallab, ota-onasi, ustozlari, tengdoshlari ishonchini oqladi.

Maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, adabiyotning she'riyat yo'nalishida sermahsul qalam tebratayotgan Yulduzxonning mehnatlari o'z samarasini bera boshladi. 2009-yili «Yosh qalamkashlar» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladi.

Uning o'tgan yili chop etilgan «Gulbargdagi shabnam» nomli ilk she'riy to'plami allaqachon o'z o'quvchilarini topishga ulgurdi.

«Kamolot» YOIH tomonidan viloyat o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan ssenariylar tanlovida ham, «Oila – muqaddas qo'rg'on» mavzusidagi insholar tanlovida ham muvaffaqiyatli qatnashib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

She'rlar mashq qilish bilan birga, milliy hunarmandchilikning kashtachilik turini ham zo'r ishtiyoq bilan o'rganayotgan intiluvchan qizimiz viloyat ijodiyot markazi tomonidan o'tkazilgan «Yosh hunarmandlar» ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'ldan bermadi.

Tengdoshingiz Yulduzxonning kelgusida ijodkormi, tadbirkormi, kim bo'lishidan qat'iy nazar, xalqimiz koriga yaraydigan komil farzand bo'lishiga ishonamiz.

Bu to'g'rida to'xtalishni lozim topdik, zero, Vatan tarixi ostonadan boshlanadi, Andijon esa tariximiz durdonalaridan biri.

Darhol sezgandirsiz, asis bolalar, xuddi shunday: «Boburnoma»da Andijon shahriga «Mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur» deya ta'rif berilgan. Siz, bilimga chanqoq, zukko o'quvchilarning qiziqishlaringizni hisobga olib, Bobur Mirzo bobongizning shahar haqidagi ta'rifini to'liq keltiramiz:



«MUNDIN ULUG'ROQ QO'RG'ON YO'QTUR»

yoki Andijon so'ziga qisqacha ta'rif

«Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor... To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabdurkim, bir yerdan ham chiqmas».

Ana shu tarixiy bitikni siz bilan birga sinchiklab o'rganamiz: «Movarounnahr» – ikki daryo oralig'i degani, ikki daryo – Amudaryo bilan Sirdaryo ko'zda tutiladi, Vatanimizni qadimda arablar shunday nomlashgan. Hozir ham biz shu azim daryolar oralig'ida yashab, ulug'ajdodlarimizning buyuk ishlarini davom ettirmoqdamiz.

«Samarqand va Kesh qo'rg'oni» degan so'zlarga ham e'tibor qaratsak: o'sha paytlarda shaharlar qo'rg'on deyilgan. Samarqand shahrini yaxshi bilasiz. Kesh qaysi shahar? Darhol javob topdingiz: ha, u bugungi Shahrisabz, Sohirqiron Amir Temur bobongizning shahri. Qadimda u Kesh nomi bilan mashhur bo'lgan.

Andijon shahriga qaytsak, demak, Bobur Mirzo davrida uning uch darvozasi bo'lgan, to'qqiz tomondan suv kirgan, lekin oqib chiqmagan va bundan ko'rinadiki, suv aholi ehtiyoji va ekin-tekini uchun ishlatilgan.

«Andijon» so'zining kelib chiqishi va shaharning paydo bo'lishi haqida tarixchilar, ziyolilar, ko'pgina tengdoshlaringiz yetarli ma'lumotga egadirlar, ammo ba'zilaringiz bu to'g'rida o'ylab ko'rmagan chiqarsiz. Shu bois, bu borada ham erinchoqlik qilmasak-da, siz bilan bir-ikki rivoyat asnosida munozara yuritib ko'rsak.

Andijon shahri va nomining kelib chiqishi haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar Alp Er Tunga – Afrofsiyob zamoni bilan bog'liq. Ularda aytilishicha, o'sha paytlarda shaharga Afrofsiyobning qizi Adinajonning nomi berilgan ekan. Qiz shu yerda betob bo'lib, davolangan ekan.

Boshqa ma'lumotlarga qaraganda, shaharga ilk bor g'isht qo'yan

kishining nomi Andi bo'lgan ekan, shuning uchun ham keyinchalik shahar Andijon deb nomlangan emish...

«O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi» kitobida quyidagi ma'lumotni ham uchratamiz:

«Tarixchi V.P.Nalivkin o'zining «Qo'qon xonligining qisqacha tarixi» degan kitobida «Andijon» so'zi o'zbeklarning bir vaqtlar hozirgi shahar hududiga kelib, o'troq hayotga ko'chgan andi qabilasidan kelib chiqqan bu so'zga «gan» qo'shimchasi qo'shilib, keyinchalik «Andijon» degan so'zga aylanib ketgan».

Azis bolalar!

Har bir manbaani o'rganishga nihoyatda zukkolik bilan yondashing: bu yerdagi «shahar hududiga kelib» degan so'zlariga unchalik qo'shilib bo'lmaydi, qadimdan ota-bobolarimiz shaharlarda o'troq yashashgan, ilm-fan, adabiyot va san'at, tibbiyot, bunyodkorlik, kulolchilik, kitobatchilik sohalarida yetakchi o'rinlarni egallashgan. Xususan, qadimda Andijon shahri o'zining ip-gazlamalari va shohi matolari bilan mashhur bo'lgan va bu matolar Buyuk Ipak yo'li orqali boshqa davlatlarga ham yetkazib berilgan.

Xulosa o'rmda:

Yuqorida Siz zukko o'quvchilar bilan bir nechta rivoyatlar xususida fikrlashdik. Ularning qay biri to'g'ri, qay biri afsona?! Bu to'g'rida ustozlaringiz bilan ham bir fikrlashib ko'ring.

Oradan ming yillar ham o'tar, minnatdor kelajak avlod orasidan yetishib chiqqan tarixchilarimiz O'zbekistonimiz haqida: «Bundan ulug'roq yurt yo'q» degan so'zlarni bitishar. O'shanda ham Andijon O'zbekiston ko'ksida eng yorug' yulduzdek charaqlab tursin, deymiz.

To'liq HAYIT



Andijon viloyati Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Iqlimi mo'tadil. Purviqor tog' tizmalari vodiyya sovuq havoning kirib kelishini to'sib turgani uchun qishda ob-havosi bir muncha barqaror. Daryolari yomg'irdan, tog'lardagi ko'p yillik qor va muzliklardan suv oladi. Asosiy daryosi Qoradaryo.

Andijon Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegimlar yurti. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi Abdulhamid Cho'lpon ham shu zamin farzandi. Bu go'shada Zokirjon Habibiy, Oraziy,

Vosit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov, Sayfiy, Anisiy, Azimiy, Boqir kabi o'nlab g'azalnavis shoirlar yashab, ijod etgan.

Sobir Abdulla, Sulton Jo'ra, Komil Yashin, To'xtasin Jalolov, Saida Zun-

ANDIJON TOMONLARDA...

nunova kabi xalqimizning ardoqli shoirlari o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Viloyatning Shahrixon va Paxtaobod tumanlarida XIX-XX asr boshiga oid bir necha tarixiy obidalar saqlanib qolgan. Adabiyot va san'at, o'lkashunoslik, Bobur va Cho'lpon

uy muzeylaridagi noyob eksponatlar Andijonning tarixi va buguni haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Istiqlol yillarida Andijon viloyati tubdan o'zgardi. Zamonaviy binolar, shinam istirohat bog'lari viloyat, shahar va qishloqlariga o'zgacha chiroy baxsh etdi. Qishloq xo'jaligi va sanoatidagi rivojlanish ham tillarga tushdi. O'rta Osiyoda yagona avtomobilsozlik korxonasi O'zbekiston – Janubiy Koreya «O'zDEU avto» kompaniyasining barpo etilishi mamlakat hayotida unutilmas voqea bo'ldi. Andijonlik sportchilar esa dunyoning manaman degan yulduzlaridan kam emasliklarini butun dunyoga namoyish etdilar. Sahifalarimizda ana shular haqida hikoya qilamiz.

Sayohatimiz davom etadi, siz esa bizga hamroh bo'ling!



Dunyoda nima ko'p, bir-biridan ajoyib-u g'aroyib mo'jizalar ko'p. Andijonda safarda bo'lib, Asakaning uch mo'jizasi haqida sizlarga hikoya qilmasak bo'lmas-ov!

Chindan ham Asakaning uch mo'jizasi bor: biri avtomobil zavodi, ikkinchisi istirohat bog'idagi «Cho'n-tak» palovi, uchinchisi esa dunyoga mashhur qo'rachalari ko'karib ketgan ulkan charxpalagidir.





Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

— *Yurtimiz bolalari qobiliyati, zohn-zakovati, tirishqoqligi borasida hech bir millatdan qolishmaydi. Viloyatimiz o'quvchilari ham barcha sohada o'z iqtidorlarini namoyon etmoqdalar.*

ISTE'DODLAR YURTI

«Yoshlar markazi»ning barpo etilishi, unda turli ijodiy to'garaklarning tashkillanishi negizida ezgu maqsad – zukko, izlanuvchan o'quvchilarga shart- sharoitlar yaratish yotadi. Shuningdek, «Badiiy gimnastika» zalining qurilib, yosh sportsevarlarga topshirilishi nur ustiga a'lo nur bo'ldi.

Bundan tashqari, viloyatda respublikada yagona bo'lgan «Vodiy viloyatlari faol yoshlar markazi oromgohi»ning qurilayotganligi

ham yoshlarga berilayotgan yana bir e'tibordir.

Viloyat hokimligi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha guruh markazi tashabbusi bilan voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish, o'quvchi- yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda xalq ta'limi tizimining moddiy-texnika bazasini boyitish maqsadida Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufiga 3 ta o'yingoh, 4 ta

bolalar bog'i, 1 ta istirohat ko'li, 3 ta ijtimoiy soha binolari o'tkazib berildi va ta'mirdan chiqarildi.

Andijon viloyati chin ma'noda iste'dodlar yurti. Bejiz bu yurt vodiy gavhari, deb nom olmagan-da! Bu faxrli nomdan barchamiz hamisha kuch olamiz. Maqsadimiz, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash. Zero, buyuk davlatni har tomonlama sog'lom millatgina, sog'lom avlodgina qura oladi.

«ASR MAKTABI»NING DOVRUG'I

Andijon shahridagi 31-maktabni viloyatda «Asr maktabi», deyishadi. Qiziq, bunday nom olishiga sabab nima ekan?



Gulnora QODIROVA,
31-maktab direktori.

Bundan bir necha yil avval maktab viloyatda «Yil maktabi» tanlovi, respublika bosqichida esa «Eng zamonaviy maktab» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan. Bugungi kunda maktab yanada katta muvaffaqi-

yatlar cho'qqisiga intildi va faxrli «XXI asr maktabi» nomini oldi.

Maktabga oliy toifali ustoz Gulnora Qodirova boshchilik qiladi. 28 yildirki, tinib-tinchimay mehnat qilib kelayotgan direktor opa maktabni o'quv-qurollari, mebel anjomlari, kompyuterlar bilan jihozlashda alohida jonbozlik ko'rsatdi.

Yoshlarni barkamollik sari yetaklashda bor kuch-quvvati, bilim va mahoratini safarbar etayotgan ustoz-

ning mehnatlari munosib baholanmoqda.

«O'zbekiston Mustaqilligining 15 yilligi» ko'krak nishoni, «Shuhrat» medali, «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni fidoyi ustozning ko'ksini bezab turibdi.

Zahmatkash ustozlar mehnat qilayotgan ilm maskanlari, tabiiyki, ana shunday yuksak sharafga munosib ko'riladi. Sira tolmang, ustozlar!



Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi DTS monitoring bo'limi mudiri Alisher Oxunjonovni hamisha o'quvchilar davrasida uchratamiz.



Andijon viloyatiga qilgan safarimiz fevralning so'nggi kunlariga, qorlar gupillab yog'ib turgan pallaga to'g'ri keldi. Kun kech bo'lishiga qaramay, Andijon shahrida joylashgan «Bolalar shaharchasiga» yo'l oldik...

SEVDIM OY-U QUYOSKINENI

Shaxmat o'ynayotgan bola o'zini Alisher Ismoilov deb tanishtirdi. U 33-maktabning 7-«B» sinfida o'qir ekan. Gaplari burro, fikrlari tiniq bu bolakay hamma sohaga qiziqarkan. Suzishga, kitob o'qishga. Uning eng oliy maqsadi kelgusida shifokor bo'lish ekan.

– Alisher, nima uchun shifokor bo'lmochisiz? – so'raymiz uning qiziqishlaridan zavqlanib.

– Buvim tez-tez betob bo'lib turadilar. Shuning uchun shifokor bo'lib, hamisha yonlarida turib, ularni davolashni niyat qilaman. Do'stim Pahlavon ham shifokor bo'lmochi.

Pahlavon Azimjonov ham 33-maktabning 7-«A» sinfida o'qiydi. Do'stlarining aytishicha, u qo'shiq kuylaganda, beixtiyor hamma unga jo'r bo'larkan.

Bu gapni eshitdigi-u, bitta qo'shiq aytib berishini iltimos qildik. Bolakay jon-u dili bilan kuylay boshladi:

*Ona kabi quchog'ingda,
Sevib oy-u quyoshingni.
Qutlay dildan hur yoshingni,
O'zbekiston, O'zbekiston!*

NONIMIZ CHIROYLI PISHDI

«Bolalar shaharchasi»dagi birinchi xonadonning qizchasi Fotimaxon Abduhakimova oilaning eng faol kitobxon. Bu fazilati unga opasi Irinadan ham o'tgan. Ayni damda Irina opasi kabi «Maqto'v yorliq»larini ko'paytirmoqchi. Bu oila farzandlarining biri qo'shiqchi, biri sportchi, yana biri kitobxon bo'lsa, uy ishlarini bajarishda onajonisiga kim ko'maklashar ekan-a?!

Bolajonlar xuddi fikrimizni uqqandek bizni oshxona tomon boshlashdi. Muncha yoqimli-ya, non isi qanday yaxshi. Munajat opa bolalari uchun tayyorlagan po'rsilodq nonlarni gaz pechidan olayotganidanmi, kirganimizni sezmay ham qoldi. Onasiga yordamlashayotgan o'n yoshli Diyorbek:

– Nonimiz chiroyli pishdi, – deya dasturxon bezatayotgan opasi Fotima va akasi Elyorga shosha-pisha uzatardi. Biz esa ularga yoqimli ishtaha tilab, navbatdagi xonadon sari oshiqamiz.



Alisher shaxmatda ukalariga ustoz.



Shaharchaning bir uyi.



Oila davrasi qanday yaxshi!



Opam juda mehribon, – deydi Fotima.



Bu mening dam olish xonam, – deydi Diyorbek.



Kompyuterdan unumli foydalanishni Elyorbek yaxshi biladi.

– Mazkur yilimiz maktabimiz uchun quvonchli voqealar bilan boshlandi. Kuni kecha tuman miqyosida tashkil etilgan seminar ham bizning maktabimizda o'tkazildi. Tuman maktablarining geografiya, iqtisod fanlari ustozlari ochiq darslarimizni kuzatdilar, tadbirlarimizda ishtirok etdilar. 6-sinf o'quvchisi Xolmirza Yusupov geografiya fanidan, 9-sinf o'quvchisi Bahodir Niyozov iqtisod fanidan ham mada n zakkoliklarini isbotlashdi.

Maktabimizga 15 dona kompyuterning o'rnatilishi esa o'quvchilarimizni yanada sevintririb yubordi. Ayni damda Gulnoza Haydarova boshchiligidagi «Kompyuter saboqlari» to'garagi tashkil etildi. Unga nafaqat o'quvchilar, balki

dek, issiqxonamizdagi 500 tup gul, pomidor va bodring ko'chatlari o'quvchilar parvarishida.

Avazbek YAQUBOV,
Baliqchi tumanidagi
25- umumta'lim
maktabi direktori:

qiziquvchan o'qituvchilar ham a'zo bo'ldilar. Bundan tashqari, o'quvchilarimiz qo'lto'pi, voleybol, futbol, badiiy gimnastika, mohir qo'llar hamda fan to'garaklarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda. Shuning-

UMIDIMIZ KATTA



S A I D A B O N U S A R D O R L A R A R D O R I

Oltinko'l tumanidagi
1-umumta'lim
maktabining 9-sinf
o'quvchisi Saidabonu
Abdusalomovani
hamma hurmat qiladi.



Saidabonu tumandagi «Kamalak» Bolalar tashkiloti sardorlar Kengashi raisi. Har sohada sardor o'tgan yili «Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi milliy ma'naviy xazinamiz» shiori ostidagi insholar tanlovida ham, «Nafosat va mahorat malikalari» ko'rik-tanlovida ham birinchi o'rinlarni egalladi. Shu yili o'tkazilgan «Eng faol kitobxon» tanlovining tuman, viloyat, respublika bosqichlarida oliy o'rinlarni egalladi.

Saidabonu amaliy san'atga, to'quvchilik, liboslar tikish, raqsga tushish, pazandachilikka qiziqib, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishiga erishyapti. Hatto folklor yo'nalishida alla ijro etishni o'rganyapti.



Safarimiz chog'ida ko'plab maktab o'quvchilari bilan hamsuhbat bo'ldik. Ulug'norlik Isfandiyoq Burgutov maktabidagi gulxona haqida to'liqinlanib gapirib berdi. Andijon tumanida yashovchi faol muxbirlarimizdan biri Mahfuzaxon Jaloldinova o'quvchilarni avtobus saroylariga sayohatga olib borish lozimligi haqida bir o'rinni taklif kiritdi. Andijon shahridagi 31-maktab o'quvchilarini esa darsdan chalg'itmaslik maqsadida katta tanaffus paytida suhbatlashib oldik. Ular ta'lim va sport sohasida erishgan yutuqlari haqida to'liqinlanib gapirib berishdi:

Hojimuhammad AHMADBEKOV, 7-sinf o'quvchisi:
 - Men tarix faniga juda qiziqaman. Bunga o'qituvchimiz Dilfuza Saidaliyevaning bu fanni juda qiziqarli tarzda o'tishlari sabab bo'lsa kerak. Shu fanga oid bilimlar sinovining viloyat bosqichiga chiqdim. Buning uchun ustozimdan behad minnatdorman.



Davronbek FARHODOV, 7-«1» sinf o'quvchisi:
 - Menimcha, o'g'il bolalar orasida sportni sevmaydi. Futbol turiga qiziqaman. «Drujba» nomli futbol maktabiga qatnab, mahoratimni oshirib boryapman. Maqsadim, Osiyo hamda jahon chempionatlarida qatnashib, yurtimiz sharafigini himoya qilish.



Yorqinbek NOSIROV, 7-«1» sinf o'quvchisi:
 - Geografiya eng sevimli fanim. Bilimlar sinovining shahar bosqichida shu fan bo'yicha qatnashib, 3-o'rinni oldim. Bilimlarimni yanada boyitib, oldingi o'rinlarni egallashga harakat qilyapman.



Fayzillo NAZARALIYEV, 7-sinf o'quvchisi:
 - Bolaligidan bokschi bo'lishni orzu qilaman. Buning uchun hozirdanoq chiniqib, ko'p mehnat qilishim lozimligini yaxshi bilaman. Murabbiyim O'zbek Haydarovdan boksning yangi usullarini o'rganib, bolalikdagi orzuimga yetishishga intilyapman.



Dilnoza YUSUPOVA, 7-sinf o'quvchisi:
 - Ingliz tili bo'yicha «Bilimlar sinovi»ning respublika bosqichida ustozim Dilnoza opa Yo'ldoshevadan o'rganmalarim asqotdi. Tanlovda 3-o'rinni egalladim. Aslida bu ham yomon natija emas. Lekin general bo'lishni orzu qilmagan askar bo'lmaganidek, men ham bundanda yuqori o'rinlarni egallash maqsadida o'qiyapman. Keyinchalik boshqa tillarni ham mukammal o'rganish niyatidaman.



MENDA TAKLIF BOR

Ko'klamning ilk kunlari edi. Uliq bahor havosidan kayfiyatim ko'tarilib, mehmonga o'tlandim. Manzilimga eltuvchi avtobusni kutib, shohbekatda biroz turib qoldim. Zerikkanimdan yo'lovchilarni kuzata boshladim. Kimdir ishga, kimdir o'qishga, yana kimdir jajji farzandlarining qo'lidan tutganча bog'chaga oshiqardi. Faxshiyamki, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiluvchi transport vositalari bor. Olis-olis manzillarga ham bir zunda yetkazadi-ya!



Shular haqida o'ylab turandim, men kutayotgan avtobus ham kelib qoldi. Salonga chiqib, yumshoqqina o'rindiqqa o'tirib oldim. Qo'llarimni toliqtirib turgan yukimning og'irligi ham

sezilmay qoldi. Avtobus yo'lovchilar bilan to'lguncha uning ichini ko'zdan kechirib o'tirdim. Salon devorlaridagi odobsiz so'zlarni, pista po'choqlarini, chiqindilarni, o'rindiqlarining yirtilib yotganini ko'rib, ertalabki yaxshi kayfiyatimdan asar ham qolmadi. Bu holni qanday izohlash mumkin? Yo'lovchilarning madaniyatsizligimi yoki uzog'ini yaqin qilgan haydovchi amakiga «kattakon rahmat»imi?!

Men ham bu muammo haqida juda ko'p o'yladim. Menimcha, bu muammoni quyidagicha hal qilish mumkin: barcha ta'lim

muassasalaridagi sayohatlar ro'yxatiga «avtokorxonaga sayohat»ni ham kiritish kerak. Toki, bolalar korxonasi ishchilarining mehnatini, salonga yozilgan odobsiz so'zlarni, chiqindilarni tozalashning mashaqqatini o'z ko'zlari bilan ko'rsalar, jamoat mulkini ehtiyotlashni, o'zgalar mehnatini qadrlashni o'rganarmidilar?!

Qadrlitengdoshlarim, bu mulohazalarimni katta tanaffusda o'qib, muhokama qiling, fikrlaringizni sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga, albatta, yozib yuboring.

Mahfuzaxon JALOLDINOVA, Andijon tumani



Bizning maktab-internatimizda kimyo, biologiya fanlari chuqur o'rgatiladi. Shuning uchun maktabimizning yonginasida «Fosh biologlar» maydonchasi barpo etilgan.

VOZDAEIDEK...

Uning bir xonasida gullarning yuzlab turlarini parvarishlaymiz. Bahor kelishi bilan maydonchamiz atrofiga rang-barang gullar ekamiz. Kuz fasli kelishi bilan ular quriy boshlashadi. Dono ustozlarimiz buning ham yo'lini topishdi. Kuz kelishi bilan gulxonamizning chetiga shakl berib, to'kilgan tuproqqa yosh-yosh nihollarni ekib qo'yamiz. Bahor fasliga kelib esa ularni gulxonamiz atrofiga o'tkazamiz.

Bundan tashqari, sinf xonalarimizda sabzavotlar ham o'stiramiz. Dekabr oyida birinchi hosilimizni

yig'ib oldik. Endilikda sabzi, kartoshka, lavlagi, loviya kabi darmondorilarga boy sabzavotlar ham yetishtirmoqchimiz. Ulardan oshpaz opalarimiz mazali taomlar tayyorlab berishadi. Men gulxonamizga atab she'r ham yozdim:

Bizning mo'jaz gulxona Ichi doim nurxona. Qishda ham yashnab turar, Muattar hid ufurar.

Isfandiyoq BURGUTOV, Ulug'nor tumanidagi 16-ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchisi



MEHRIDARYO ANDIJON

Chiroyi tilda doston,
Yurtim bo'ynida marjon.
Allomalarga makon,
Mehridaryo Andijon.

Paxta, bug'doy, sholidan,
Xirmon uyar mo'lidan.
Sharbat oqar ko'lidan,
Mehridaryo Andijon.

Ko'rkam erur ham obod,
Keling, qani biz tomon.
Sizga peshvoz chiqadi,
Mehridaryo Andijon.

Nasibullo QO'CHQOROV,
Andijon tumanidagi 24-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi

BAXTIYORLAR QO'SHIG'I

Quyoshimiz charog'on,
Turmushimiz farovon,
El tinch, musaffo osmon,
Vatan farzandlarimiz.

Tinchliksevar, qudratli,
Rivoji tez sur'atli,
Jahonaro ibratli,
Vatan farzandlarimiz.

Yurtboshi der: yayrab o's,
Sezmasdan hech kam-u ko'st,
Barcha inoq, ahil, do'st,
Vatan farzandlarimiz.

To'kis baxt-iqbolimiz,
Porloq istiqbolimiz,
Kutguchi kamolimiz –
Vatan farzandlarimiz.

Ishonchlari oqlanar,
Orzular qanotlanar,
Ona Vatan shodlanar,
Sodiq farzandlari – biz!

Yo'ldosh SULTONOV,
Shahrixon tumani, Nayman qishlog'i

KITOB

Kitob o'qib misoli,
Dillarga nur sochadi.
Zavqi jo'shib ko'ngillar,
Qulf-kaltin ochadi.

Olam sirli bir jumboq,
Unda savollar bisyor.
O'qisangiz ko'p kitob,
Barchasiga javob bor!

Shahbozbek ABDUSALOMOV,
Shahrixon tumanidagi
51-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi



KATTA BOLA

– Kap-katta bo'lib qolding,
O'ylab gapir har so'zing.
Keta turib bog'chaga,
Botinkangni kiy o'zing.

– Oyi, to'g'ri aytdingiz,
Endi katta bolaman!
Shunday ekan, bog'chaga
Bormay qo'ya qolaman...

YAXSHI TULKI

Ertak ayting, opajon,
Uni tinglash qanday soz.
Ertak oldidan faqat,
Sizdan bitta iltimos.

Eshitganlar tulkini,
Yomon ekan, demasin.
Bo'g'irsoqni Tulkivoy,
Ayting, opa, yemasin.

Nafisaxon ABDUVAHOBOVA,
Marhamat tumanidagi 13-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi



KO'KDA NURLI KAMALAK


Kumush qish ortda qolib,
Keldi zumrad bahor ham.
Ko'klamni qarshi olib,
Qushlar kuylashar bu dam.

Quyoshda jilvalanar,
Yetti rangda kamalak.
Doshqozonda momolar,
Pishirishar sumalak.

Ortda qoldi izg'irin,
Maysalar yozdi quloch.
Qora qarg'a, ko'kdan qoch,
Charx urmoqda qaldirg'och.

Abdulaziz MAMADALIYEV,
Baliqchi tumani

Ma'mirobodlik bolalar shoiri Odi
Abdurahmonning «Quvnoq
bolalar», «Bolalik qolgan joylar»
«Quyoshni yumalatib» kabi o'nlab
asarlari kitob javoningizdan
munosib o'rin olgan bo'lsa,
ajabmas.
Quyida shoir ijodidan
namunalar o'qiydiz.



BAHORN TASHLAB KETDI...

Qaldirg'ochlar janubdan
Qaytib keldi «vijir»lab.
Tol tagida sava ham,
To'pon titar «g'ujur»lab.

Momaqaymoq boshiga,
Qalpoq kiyib sariqdan –
Yetaklashib yalpiz ham,
Chiqib keldi ariqdan.

«Bitbildiq» deb bedana,
To'rqovoqni chayqaydi.
Bedazorlar hidini,
Olislardan payqaydi.

Muzni surib ariqlar,
Daryoga boshlab ketdi.
Quyosh gorni ko'tarib,
Bahorni tashlab ketdi.



CHAQMOQ BULUTGA

Men quyoshni
horitib,
Seni tursam
yoritib –
Sal ko'targin
boshingni,
Quyavermay
yoshingni...

KATTA MAYDONLAR KUTMOQDA

Viloyatning shahar va tumanlarida bo'lganimizda, xususan, Paxtaobod, Izboskan, Shahrizondagi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jajjilarning ham sportga mehri ortib borayotganiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, qizlarni sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishida andijonliklar alohida o'rnatq bo'lmoqdalar. Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi mutaxassisi Elyorjon RAHMAJOV bunday ogzu ishlardan zavqlanib, shunday hikoya qiladi:



– Viloyatimizda keyingi bir yilning o'zida badiiy gimnastika bilan shug'ullanayotgan qizlar soni ikki barobarga oshdi. Badiiy gimnastika turiga qaratilayotgan e'tibor tufayli sportning boshqa turlari ham jadal rivojlanmoqda. Ayni kunda 129 nafar murabbiylar qo'l ostida 3 mingdan ziyod qizlar mashg'ulotlarda muntazam ishtirok etmoqdalar. Andijon shahridagi gimnastika maktabida esa 527 nafar o'quvchi-yoshlar sportning badiiy va sport gimnastikasi bo'yicha 17 nafar tajribali ustozlari yordamida katta maydonlar sari intilmoqdalar. Yevgeniya Ageyeva, Alevtina Mamataliyeva, Dilorom Arslonbekova, Qizlarxon Ahmadaliyeva

kabi murabbiylar sabog'ini olgan umidli sportchilar mamlakat va viloyat birinchiligi musobaqalarida o'z so'zlarini aytishga ulgurishdi. Tarbiyalanuvchilardan Malika Mamatqulova, Nigina Potapchuk, Mavluda Hasanova, Sabina Ahmedova «Oltin vodi» respublika birinchiligi musobaqalarida munosib o'rnlarni qo'lga kiritishdi. Ularning tengdoshlari Floming Gloriya va Zebo Muhammadjonova ham gimnastika olamida nimaga qodir ekanliklarini to'la namoyon etdilar.

Darhaqiqat, Andijon allaqachon o'zining ne-ne mashhur sportchilari bilan dovrug' topgan zamin. Gimnastikachi qizlarimiz harakatida ham bu nomni yanada ulug'lash va ardoqlash ularning asosiy vazifalariga aylangan.



Andijon shahridagi ixtisoslashtirilgan futbol maktab-internatiga borganimizda ham dildan faxr tuyg'usidan yayradik. Agar bu joyga kirmay o'tganimizda, sayohatimiz kemptik bo'lib qolishi aniq ekan. Maktabdagi ish yuritish uslubi ibratli ekanligi bois, sizlarga ham so'zlab berishga shoshildik.

PARVOZINGIZNI KUTAMIZ, QALDIRG'OCHLAR!



2010-yil – «Barkamol avlod» yilida asos solingan mazkur futbol maktabi faoliyat boshlagan dastlabki kunlaridanoq Yevropa mamlakatlaridagi futbol akademiyalari uslubida ish olib borishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib oldi. Moskvaning «Spartak» jamoasi futbol maktabi rahbar o'rinbosari A.Polishuk Andijonga taklif etilib, undan futbol maktabining kelgusi faoliyatiga doir qimmatli maslahatlar olindi.

Andijon shahri va tumanlarida besh bosqichli futbol musobaqalari o'tkazilib, 1997-2000-yillarda tug'ilgan bolalar orasidan iqtidorlilari saralab olindi.

Osiyo Futbol Konfederatsiyasi mutaxassisi Vadim Shodimetov boshchiligidagi nufuzli hakamlar jamoasi 4805 nafar da'vogar yosh futbolchilar orasidan 81 nafarini tanlab olishdi. Tanlovda asosiy e'tibor to'p bilan ishlash, o'yin amaliyoti, dribling, tezlik, aqliy izlanishlarga qaratildi.

Turli o'rtoqlik uchrashuvlari paytida yana 39 nafar yosh iqtidor egalari aniqlanib, jami 120 nafar bolalar asosiy test sinovlaridan o'tkazildi. Sinov Yevropaning yetakchi futbol akademiyalari ish uslubida olib borildi. Va nihoyat, 96 nafar yosh sportchilar barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, futbol maktab-internatining ilk qaldirg'ochlari bo'lish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Mazkur maktabda yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarliklarini

oshirish bilan bir qatorda, ular qalbida Vatan tuyg'usini mustahkamlash, yurtga sadoqat, qadriyatlarimizga chuqur hurmat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir.

O'tgan yili Toshkent shahrida 1999-yilda tug'ilgan bolalar jamoalari o'rtasidagi respublika musobaqasida ishtirok etgan maktab-internat jamoasi faxrli uchinchi o'rinni egallashga sazovor bo'ldi. Jamoa a'zosi Asilbek Azizov raqib darvozasiga 7 ta to'p kiritib, «Eng yaxshi hujumchi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Jamoa o'yinchilari Bakir Mo'yidinov, Shahboz Ergashboyevga esa mamlakati-mizning yetakchi futbol akademiyalaridan «sovchi»

kelishga ham ulgurdi.

Biz nufuzi vodiyni tutgan futbolbolsevar bolalarga katta yo'l ochgan ushbu dargohdan qaytar ekanmiz, Andijon boks maktabi haqidagi jarangdor e'tiroflarni esladik. Shuningdek, Andijon futbol maktabi ham, albatta, tez orada xalqaro maydonlarda o'z o'rmini topishiga katta umid bog'ladik.



YOSH JURNALISTLAR

Mana, 30 yildirki o'zim mehr qo'yg'an o'qituvchilik kasbida ishlab kelmoqdaman. Shu yillar davomida ona tili va adabiyot fanidan saboq berib, juda ko'p shogirdlar orttirdim.

21-umumta'lim maktabimizda ijodkor o'quvchilar juda ko'p. Bunga «Yosh jurnalistlar» to'garagiga rahbarlik qilib, ko'p bora amin bo'lganman.

Fo'garak a'zolariga yo't-yo'riqlar ko'rsatgan holda, ularni tinmay izlanishga, atrofidagi hodisalarga xolisona baho berishga undayman.

Ularining kelgusida barkamol bo'lib yetishishlarini istayman. Quyida to'garagimiz a'zolari ijodidan namunalar o'qiyisiz.

Maqsuda RAHMONOVA,
Buloqboshi tumanidagi
21-umumta'lim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

ONA QISHLOG'IM

Mening qishlog'im Shirmonbuloqdir. Suvlari shirin – Qaynar buloqdir.

Tuproq'in o'pib,
Yashayman doim.
«Yurtni sev», deya
Ta'kidlar oyim.

Ruxsora TO'LANOVA,
4-«A» sinf o'quvchisi

QALAM DEYDI...

Yozaman chiroyli xat,
Afsus qilmaysan albat.
Sindirmagin o'zimni,
Ochib olgin «ko'zim»ni.
Zilola TURG'UNOVA,
5-«A» sinf o'quvchisi



YURTIM

Men taniyman bug'doyzorni donlaridan,
Men taniyman tandirlarni nonlaridan,
Men taniyman dehqonlarin xirmonidan,
Men taniyman o'zbekimni o'g'lonidan.

Nafisa KARIMJONOVA,
5-«A» sinf o'quvchisi

QUSHLAR «BOZORI» DEYSIZ

Andijonlik bolalarning ham tabiatni, uning orka farzandlari sanalmish qushlarni behad yaxshi ko'rishlari bor gap. Sahifa tayyorlanayotganda, biz qushlar bayrami haqida ham to'xtalishni lozim topdik.

1-Aprel – Xalqaro qushlar kuni



Shu kecha-kunduzda Qoravultepa suv ombori va Sangzor daryosi qirg'oqlari chinakamiga qushlar bozoriga aylangan.

Quyosh bo'y ko'rsatgach, chipor-qizg'ish ko'rinishdagi tustovuqlar kamalakdek tovlanib, nazokati-yu nafosatini namoyon qiladi. Bu qushlar davlat nazoratiga olingan bo'lib, viloyat ovchilar va baliqchilar jamiyati xodimlari ulardan doimo ko'z-quloq bo'lib turishadi. Jussasi va oyoqlari tuzilishi jihatdan xonaki tovuqlarnikiga o'xshash, yashash tarzi ham deyarli farq qil-

maydigan tustovuqlarning oq va uzun dumi tez va tekis uchishga moslashgan.

Tabiatning bu beozor mo'jizalari bekorga nobud bo'lmisligini chin dildan istab qolasan, kishi.

Abdulla SAIDOV,
jamoatchi muxbirimiz

UYIMIZNING ZIYNATI BO'LSIN



Aziz o'quvchilar, e'tibor bergan bo'lsangiz, qish mavsumi arafasida «Yong'in xavfsizligi oyligi» e'lon qilinib, bir oy davomida yong'in xavfsizligiga oid maqola va ko'rsatmalar e'lon qilinib borilardi. Bu mavzuning nechog'li dolzarbligini inobatga olsak, xavfsizlik posbontlarining o'rinti maslahat va eslatmalari hech qachon ortiqchatik qilmaydi.

Aziz hamshaharlar, gaz yoqilg'isi va elektr quvvatidan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash doimo dolzarb vazifa sanalishi hech kimga sir emas. Shunga ko'ra, profilaktika inspektorlari, gaz va elektr ta'minoti idoralari xodimlari,

Davlat inspeksiyalari vakillaridan iborat guruhlar tashkil etilib, ular tomonidan reytd tekshiruvlari o'tkazilyapti, zero, gaz yoqilg'isi va elektr quvvati xonadonlarimizga kulfat emas, ziynat baxsh etishi o'zimizga bog'liq.

Mo'min RISBEKOV,
24-XYOXQ kichik inspektori

Mazkur sonni tayyorlashda yaqindan yordam ko'rsatganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Axborot xizmati rahbari J.Musayevga, Andijon viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Dilmurod RAHMATILLAYEV ga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

- T. HAYITOV,
- F. JALILOVA,
- FADILOVA,
- M.MADRAHIMOVA,
- YU. ABDULLAYEV,
- A.KARIMOV,
- G. ORIFJONOVA,
- N. ABDULLAYEVA,
- O.ORIPOV.



Sayohatchilar
Feruz ADILOVA,
Ma'mura MADRAHIMOVA



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 71378
Buyurtma N: J 1399